



PEDAGOGIK VOQE'LIKNI TIZIMLI TUSHUNISH G'OYALARINING
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TIZIMLI FIKRLASH
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Samadovashohsanam71@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15015754>

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik voqelikni tizimli tushunish g'oyalari va ularning bo'lajak o'qituvchilarda tizimli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil etilgan. Tizimli yondashuvning nazariy asoslari, uning pedagogika va tarbiya jarayonidagi o'rni, shuningdek, ushbu metodologiyaning rivojlanish bosqichlari G'arbiy Yevropa, rus va o'zbek pedagogikasi kontekstida ko'rib chiqilgan. Tizimli yondashuvning metodologik tamoyillari va uning ta'lim jarayonida qo'llanilish imkoniyatlari ilmiy tahlil asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik voqelik, tizimli yondashuv, tizimli fikrlash, pedagogika, metodologiya, tarbiya jarayoni, ta'lim tizimi, innovatsion pedagogika.

Pedagogik voqelikni tizimli tushunish g'oyalarining shakllanishi Ya.A. Komenskiy, D. Lokk, I.F. Gerbart, A. Disterveg kabi G'arbiy Yevropa olimlarining nomlari bilan bog'liq.

Rus pedagogika fanida tizimli yondashuv g'oyalarining rivojlanishi K.D. Ushinskiy, N.I. Pirogov, V.G. Belinskiy, P.F. Kapterev, N.F. Bunakov, V.P. Vaxterov va boshqa pedagoglarning ismlari bilan aloqador.

Ko'plab ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladigan umumiy tizimlar nazariyasi asrlar davomida shakllangan bo'lib, u Platon, Aristotel, Ch. Darvin, G. Gegel, I. Kant, D.I. Mendelejev, I. Prigojin, L. Bertalanfi va boshqalarning asarlarida o'z aksini topgan. V.G. Afanasev, A.N. Averyanov, I.V. Blauberg, V.P. Kuzmin, V.A. Lektorskiy, V.N. Sadovskiy, B.G. Yudin, E.G. Yudin va boshqa mutaxassislarining sa'y-harakatlari bilan tizimli yondashuvning metodologiya bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, shuningdek, undan turli xil tabiiy va ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda foydalanish mumkinligi isbotlangan.

Umumilmiy metodologik qoidalar so'nggi paytlarda maxsus bilim sohasida - sinergetika yoki o'z-o'zini tashkil etish nazariyalarida ishlab chiqilmoqda. Pedagogik obyektlar va jarayonlarni tizimli yondashuv metodologiyasi nuqtayi nazaridan murakkab o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlar sifatida ko'rib chiqish V.I. Andreev, L.Ya. Zorina, N.M. Talanchuk, V.I. Redyuxin va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.





Tarbiya jarayonini tashkil etish amaliyotida va uni nazariy umumlashtirishda tizimli yondashuv g'oyalari A.S. Makarenko, S.T. Shatskiy, V.N. Soroka-Rosinskiy, N.K. Krupskaya, V.A. Suxomlinskiy va ularning izdoshlari amaliy faoliyati hamda nazariy ishlarida rivojlantirilgan.

Ijtimoiy va psixologik hodisalarni tahlil qilishda, tarbiya jarayonini tashkil etishda, shaxsning rivojlanishi va shakllanishi jarayonida tizimli yondashuvdan foydalanish g'oyalari P.P. Blonskiy, L.S. Vigotskiy, M.M. Rubinshteyn, V.P. Ananov, L.I. Bojovich, V.V. Davidov, A.N. Leontev, A.V. Petrovskiy va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

O'zbekistonda tizimli fikrlash va pedagogikada tizimli yondashuv masalalarida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Masalan, U.H. Axrorova pedagogikada tizimli tahlil metodologiyasi haqida tadqiqotlar olib bormoqda.

Shuningdek, B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga yangicha yondashuvni taklif etib, uni "pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisa" deb ta'riflagan.

Bundan tashqari, "Ta'limda tizimli yondashuv" mavzusida olib borilgan tadqiqotlar pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlashda tizimli yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Pedagogik jarayonni tashkil etishga tizimli yondashuvning nazariy muammolarini ko'rib chiqishda biz V.I. Andreev, Yu.K. Babanskiy, V.P. Bepalko, L.Yu. Gordin, V.V. Guzeev, M.A. Danilov, V.I. Zvyaginskiy, L.Ya. Zorin, B.C. Ilin, V.M. Korotov, V.V. Kumarin, M.I. Maxmutov, B.T. Lixachev, L.I. Mishchenko, P.T. Frolov, V.V. Krayevskiy, N.A. Plotnikov, M.N. Skatkin, V.A. Slastenin, G.N. Filonov, N.D. Xmel va boshqalarning tadqiqotlariga tayanamiz.

Ilmiy adabiyotlarda tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasining yo'nalishi sifatida qaraladi, uning asosida obyektning tizim sifatida ko'rib chiqish yotadi: o'zaro bog'liq elementlarning yaxlit majmui (I.V. Blauberg, V.N. Sadovskiy, E.G. Yudin); o'zaro ta'sir qiluvchi obyektlar majmui (L. Bertalanfi); mohiyat va munosabatlar majmui (Xoll A.D., Feyjin R.I., keyingi Bertalanfi); faoliyatning har qanday turini qamrab oladigan, qonuniyatlar va o'zaro bog'liqliklarni aniqlash orqali ulardan yanada samarali foydalanishga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil etish usuli va hokazo.

Tizimli yondashuv tizimlarga xos bo'lgan qonuniy bog'lanishlarni bilish va amaliy faoliyat jarayonida doimiy hisobga olish va foydalanishni nazarda tutadi.





Tizimlilikning eng umumiy asosi dunyoning moddiy birligi, voqelikka xos bo'lgan o'zaro aloqadorlik va harakatning dialektik tamoyillaridir, biroq ular voqelikning turli sohalarida o'zgaradi va tizimlarning har bir turida o'ziga xos shaklni hosil qiladi.

Tizimli yondashuvning asosiy tamoyillarini ajratib ko'rsatish lozim:

- bir vaqtning o'zida tizimni yagona yaxlitlik sifatida va ayni paytda yuqori darajalar uchun quyi tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradigan yaxlitlik;
- tuzilishning iyerarxikligi, ya'ni quyi darajadagi elementlarning yuqori darajadagi elementlarga bo'ysunishi asosida joylashgan ko'plab (kamida ikkita) elementlarning mavjudligi;
- aniq tashkiliy tuzilma doirasida tizim elementlari va ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish imkonini beradigan strukturalash;
- alohida elementlar va umuman tizimni tavsiflash uchun ko'plab kibernetik, iqtisodiy va matematik modellardan foydalanish imkonini beruvchi ko'plik.

Pedagogik jarayonni tashkil etishga tizimli yondashuvning nazariy muammolarini ko'rib chiqishda biz V.I. Andreev, Yu.K. Babanskiy, V.P. Bepalko, L.Yu. Gordin, V.V. Guzeev, M.A. Danilov, V.I. Zvyaginskiy, L.Ya. Zorin, B.C. Ilin, V.M. Korotov, V.V. Kumarin, M.I. Maxmutov, B.T. Lixachev, L.I. Mishenko, P.T. Frolov, V.V. Krayevskiy, N.A. Plotnikov, M.N. Skatkin, V.A. Slastenin, G.N. Filonova, N.D. Xmel va boshqalar.

Ilmiy adabiyotlarda tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasining yo'nalishi sifatida qaralib, uning asosida obyekt tizimlar:

o'zaro bog'liq elementlarning yaxlit majmui (I. V. Blauberg, V. N. Sadovskiy, E. G. Yudin); o'zaro ta'sir qiluvchi obyektlar majmui (L. Bertalanfi);

mohiyat va munosabatlar majmui (Xoll A.D., Feyjin R.I., keyinchalik Bertalanfi);

tashkil etish usuli faoliyatning har qanday turini qamrab oladigan harakatlar, qonuniyatlar va o'zaro bog'liqliklarni aniqlash orqali ularni yanada samarali foydalanish va h.k. sifatida ta'riflanadi.

Xulosa:

Pedagogik voqelikni tizimli tushunish g'oyalari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada tizimli yondashuvning shakllanishi, uning G'arbiy Yevropa, rus va o'zbek pedagogikasidagi rivojlanish bosqichlari hamda pedagogik jarayonda qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tizimli fikrlash





bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularning o'quv jarayonini yaxlit holda tushunishlariga yordam beradi.

Tizimli yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, o'qituvchilar va o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun metodologik asos yaratadi. Shu sababli, pedagogik ta'lim jarayonida tizimli yondashuv tamoyillaridan keng foydalanish va uni o'qituvchilar malakasini oshirish tizimiga joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асмолов А.Г. Личность как предмет психологического исследования. – М.: Мзд-во МГУ, 1984. – 280 с.
2. Дмитриенко В.А. Методологические проблемы науковедения. Томск, 1977.
3. Chorshanbiyevich, N. F. PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR TADBIIQIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.
4. Kaldibekova, A. S., & Norboyev, F. C. (2021). Pedagogik innovatsion faoliyatda psixologik to'siqlar muammosi. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 611-615.
5. Лихачев Б.Т. Методологические основы педагогики. – Самара, 1998.
6. Методологические проблемы развития педагогической науки /Под редакцией Атутова Р.Р., Скаткина М.Н. М.: Педагогика, 1985. -284 с.
7. О'Коннор Джозеф, Макдермотт Иан. Искусство системного мышления: Необходимые знания о системах и творческом подходе к решению проблем = The Art of Systems Thinking: Essential Skills for Creativity and Problem Solving // «Альпина Паблицер». — М., 2011. — № 978-5-9614-1589-6.
8. Садовский «Системный подход и общая теория систем: статус, основные проблемы и перспективы развития» Москва: Наука, 1980 г.
9. Сидоркин А.М. Методология системного подхода в педагогике. М.: Изд-во НИИ АПН СССР, 1989. - 271 с. 9 Фролов П.Т. Системный подход в управлении педагогическим процессом в школе. Воронеж, 1984. - 200 с. 10 Хмель Н.Д

